SURXONDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI





# SURXONDARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

*2022- YIL YANVAR-IYUN (DASTLABKI MA’LUMOT)*



# Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2022- yil yanvar-iyun oyida)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2022- yilning yanvar-iyun oyida Viloyat korxonalari tomonidan 3047,0 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2021- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 104,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 88,2 % ni tashkil etdi.

| 2,8 % | 88,2 % | 7,2 % | 1,8 % |
|---|---|---|---|
| B | C | D | E |
| Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | Ishlab chiqaradigan sanoat | Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash | Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish |

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da

| | 2021- yil yanvar-iyun | 2022- yil yanvar-iyun |
|---|---|---|
| B | 55,5 % | 63,4 % |
| C | 110,3 % | 105,3 % |
| D | 129,0 % | 129,1 % |
| E | 101,2 % | 103,3 % |

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

*Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning – 29,1 % ga hamda ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 5,3 % ga o‘sishi kuzatildi.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati

**Yanvar-iyun**

**B**

| Yil | mlrd. so‘m | % |
|---|---|---|
| 2022- yil | 85,3 mlrd. so‘m | 63,4 % |
| 2021- yil | 94,1 mlrd. so‘m | 55,5 % |
| 2020- yil | 109,5 mlrd. so‘m | 96,4 % |

*Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 85,3 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,8 % ini tashkil etdi.*

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda**



## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*







| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-iyun | 2022- yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Ko‘mir, ming t.** | 140,8 | 124,2 | -16,6 |
| **Neft, ming t.** | - | 42,8 | 42,8 |







| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-iyun | 2022- yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Qattiq tuz, ming t.** | 11,4 | 12,4 | 1,0 |
| **Chaqiq tosh, ming t.** | 38,3 | 40,9 | 2,6 |

## Ishlab chiqaradigan sanoat




*2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2686,2 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 88,2 % ini tashkil etdi.*

**2021- yil yanvar-iyun** 88,9 %

**2022- yil yanvar-iyun** 88,2 %

*O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,7 % ni (2021- yilning yanvar-iyun oylarida – 0,2 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 0,4 % (0,3 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 18,4 % (20,6 %) va quyi texnologiyalisi – 69,4 % (67,6 %)ni tashkil etdi.*



*Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta’mirlash va o‘rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 5,4 % (2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 114,6 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 1,5 % (2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 94,0 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 45,8 % (2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,1 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 16,8 % (2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,1 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,7 % (2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 114,3 %)ni tashkil etdi.*

**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati**

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*






*2022- yilning yanvar-iyun oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 9,0 ming tonna paxta tolasi (2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 30,7 % ga kamaygan), 10,2 ming tonna boshqa guruhlarga kiritilmagan suyuq neft yoqilg‘isi (mazut) (34,1 % ga kamaygan) 27,1 ming tonna kalava ip (27,4 % ga ko‘paygan), 31,6 ming tonna neft bitumi (2,3 % ga ko‘paygan) hamda ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.*

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-iyun | 2022- yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Paxta tolasi, ming t.** | 13,0 | 9,0 | -4,0 |
| **Kalava ip, ming t.** | 21,2 | 27,1 | 5,9 |
| **Boshqa guruhlarga kiritilmagan suyuq neft yoqilg‘isi (mazut), ming t.** | 15,5 | 10,2 | -5,3 |
| **Yumshoq bug‘doy va spelta uni, ming t.** | 59,1 | 57,7 | -1,4 |
| **Sariyog‘, t.** | 0,5 | 0,8 | 0,3 |
| **O‘simlik yog‘i (tozalangan), ming t.** | 1,9 | 2,1 | 0,2 |

## Metallurgiya sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyun oylarida metallurgiya sanoati ulushi 1,7 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 0,3 m. ga o‘sgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ulushi 1,5 % ni, fizik hajm indeksi esa, 94,0 % ni tashkil etib va ishlab chiqarish hajmi 46,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*




## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyun oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 7,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 129,1 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,1 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 72,4 % ga kaiyungan va ishlab chiqarish hajmi 156,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyun oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 18,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 76,3 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,3 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 3,3 % ga ko‘paygan va ishlab chiqarish hajmi 496,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyun oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 72,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 16,7 % ni va ishlab chiqarish hajmi 16,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.*




## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyun oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 37,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 154,1 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 41,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 115,8 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1266,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.*

## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

*2021- yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 6,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 110,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,2 %, fizik hajm indeksi 65,8 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 127,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.*



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 123,4 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi 141,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 11,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*




## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




*2021- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 87,6 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,6 % ni, fizik hajm indeksi 115,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 261,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 194,8 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi 56,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 9,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*



## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 220,4 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 7,2 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 129,1  % ga oshganligi kuzatildi.




### Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-iyun | 2022- yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya, mln.kVt.s** | 85,1 | 132,6 | 47,5 |
| **Issiqlik energiyasi, ming gkal** | 22,3 | 19,4 | -2,9 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 55,2 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,8 % ini) tashkil etdi.




## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-iyun | 2022- yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, *mlrd. so‘m*** | 3,6 | 2,3 | -1,3 |
| **Boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo‘qotish bo‘yicha xizmatlar, *mlrd. so‘m*** | 11,4 | 13,8 | 2,4 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar 27,4 mlrd. so‘m, oqova suvlarini yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 2,3 mlrd. so‘m shuningdek, 13,8 mlrd. so‘m boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo‘qotish bo‘yicha xizmatlar ishlab chiqarildi.

# Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1093,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 113,2 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 35,9 % ni tashkil etdi.*

## Oziq-ovqat mahsulotlari

| 2021- yil yanvar-iyun | 2022- yil yanvar-iyun |
|---|---|
| 43,3 % | 43,6 % |

## Nooziq-ovqat mahsulotlar

| 2021- yil yanvar-iyun | 2022- yil yanvar-iyun |
|---|---|
| 56,7 % | 56,4 % |

*Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,6 % (2021- yil yanvar-iyun oylarida 0,9 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jarqo‘rg‘on tumani 15,2 % ni, Sho‘rchi tumaniga to‘g‘ri kelib 12,4 % ni, Termiz sh. 17,5 % ni tashkil etdi.*

*Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida Viloyat o‘sish sur’ati (113,2 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Qumqo‘rg‘on(171,8 %), Termiz (151,5 %), Angor (134,8 %), Sariosiyo (149,1 %) , Jarqo‘rg‘on (128,3 %) tumanlarida qayd etildi.*

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jarqo‘rg‘on tumani 15,2 % ni, Sho‘rchi tumaniga to‘g‘ri kelib 12,4 % ni, Termiz sh. 17,5 % ni tashkil etdi.*




**943,4** *mlrd. so‘m*
*2020- yil yanvar-iyun*

**990,7** *mlrd. so‘m*
*2021- yil yanvar-iyun*

**1093,5** *mlrd. so‘m*
*2022- yil yanvar-iyun*




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste’mol mahsulotlarining ulushi

**2020- yil** **99,7 %**

**2021- yil** **115,1 %**

**2022- yil** **113,2 %**

## Surxondaryo Viloyatsi hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jarqo‘rg‘on tumaniga to‘g‘ri kelib 17,4 % ni, shuningdek, Sherobod tumani 9,8 % ni, Termiz shahri esa 17,3 % ni tashkil etdi.*

### Surxondaryo Viloyati

**2020- yil**
**2445,9 mlrd. so‘m**
*2020- yil yanvar-iyun*

**2021- yil**
**2642,1 mlrd. so‘m**
*2021- yil yanvar-iyun*

**2022- yil**
**3047,0 mlrd. so‘m**
*2022- yil yanvar-iyun*



**106,1 %**
**2020- yil**
*2020- yil yanvar-iyun*

**105,6 %**
**2021- yil**
*2021- yil yanvar-iyun*

**104,5 %**
**2022- yil**
*2022- yil yanvar-iyun*



## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jarqo‘rg‘on (2324,0 ming so‘m), Termiz shahri (2766,4 so‘m), Sherobod (1471,2 so‘m) hamda Termiz (2069,7 ming so‘m) tumanlarida o‘rtacha Viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (1105,1 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.*




### Surxondaryo Viloyati

2020- yil
926,1 ming so‘m
*2020- yil yanvar-iyun*

2021- yil
980,6 ming so‘m
*2021- yil yanvar-iyun*

2022- yil
1105,1 ming so‘m
*2022- yil yanvar-iyun*



01 — 103,7 % — 2020- yil
*2020- yil yanvar-iyun*

02 — 103,5 % — 2021- yil
*2021- yil yanvar-iyun*

03 — 102,1 % — 2022- yil
*2022- yil yanvar-iyun*

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 396,6 ming so‘m bo‘lgani holda, Termiz shahrida – 1004,1 ming so‘mni, Termiz tumanida – 918,7 ming so‘mni, Jarqo‘rg‘on tumanida – 728,8 ming so‘mni va Sho‘rchi tumanida – 617,6 ming so‘mni tashkil etdi.*

### Surxondaryo Viloyati

**2020- yil**
357,2 ming so‘m
*2020- yil yanvar-iyun*

**2021- yil**
367,7 ming so‘m
*2021- yil yanvar-iyun*

**2022- yil**
396,6 ming so‘m
*2022- yil yanvar-iyun*



97,5 %
**2020- yil**
*2020- yil yanvar-iyun*

112,8 %
**2021- yil**
*2021- yil yanvar-iyun*

110,6 %
**2022- yil**
*2022- yil yanvar-iyun*



## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1140,9 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 37,4 % ni tashkil etdi.*




### Surxondaryo viloyati

**2020- yil**
**1115,7 mlrd. so‘m**
*2020- yil yanvar-iyun*

**2021- yil**
**1119,9 mlrd. so‘m**
*2021- yil yanvar-iyun*

**2022- yil**
**1140,9 mlrd. so‘m**
*2022- yil yanvar-iyun*



**45,6 %**
**2020- yil**
*2020- yil yanvar-iyun*

**42,4 %**
**2021- yil**
*2021- yil yanvar-iyun*

**37,4 %**
**2022- yil**
*2022- yil yanvar-iyun*

## Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*Bugungi kunda Viloyatda 4 703 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 813 tasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 17,3 % i) Termiz shahriga, 547 tasi (11,6 %) Denov tumaniga, 368 tasi (7,8 %) Sho‘rchi tumaniga, 314 tasi (6,7 %) Qumqo‘rg‘on tumaniga va 296 tasi (6,3 %) Termez tumaniga to‘g‘ri kelmoqda.*




**Jami yangi tashkil etilgan**

2020- yil — 1178 dona

2021- yil — 804 dona

2022- yil — 441 dona



**Jami faoliyat yuritayotgan**

2020- yil — 3625 dona

2021- yil — 4491 dona

2022- yil — 4 703 dona

## Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi

*Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o‘sish sur’atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 20 ta loyiha bo‘yicha 44.5 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida 2022-yilning yanvar-iyun oylarida 35 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi.*

### Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining asosiy ko‘rsatkichlari

| | 2021- yil yanvar-iyun | 2022- yil yanvar-iyun |
|---|---|---|
| Loyihalar soni, birlikda | 20 | 20 |
| Korxonalar soni, birlikda | 20 | 20 |
| Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so‘m | 34.9 | 44.5 |
| Eksport qilingan mahalliylashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSh dollari | 0,02 | - |
| Yaratilgan yangi ish o‘rinlari, birlikda | 81 | 35 |